

ALEKSANDR FAYNBERG: HAYOTI, IJODI VA ADABIY MEROSI**Yo'ldosheva Farangiz Ravshanbek qizi**

O'zDJTU, Ingliz tili ikkinchi fakulteti 1-kurs talabasi

Annotatsiya: ushbu maqolada o'zbek va rus madaniy aloqalarini mustahkamlashda ulkan hissa qo'shgan ijodkorlardan biri Aleksandr Arkadyevich Faynbergning hayoti, ijodi: she'riyat va adabiy merosi, tarjima va adabiy tadqiqotlari, kino va multfilm ssenariylari, unvon va mukofotlari hamda uning asarlarining adabiyot va madaniyatga qanday ta'sir ko'rsatgani haqida so'z boradi. Ushbu maqolaning asosiy maqsadi Faynberg ijodiy merosining turli qirralarini yoritish va uning bugungi kunda tutgan o'rnini ochib berish orqali shoir asarlarining asosiy mazmunini o'quvchilarga yetkazishdir.

Kalit so'zlar: xalq shoiri, ijodiy meros, she'riyat va tarjimachilik, rus va o'zbek adabiy aloqalari, adabiy ta'sir va zamonaviy ahamiyat.

Adabiyot – inson tafakkuri va madaniy merosining ajralmas qismi bo'lib, u nafaqat estetik zavq uyg'otadi, balki jamiyatning ijtimoiy va axloqiy qadriyatlarini shakllantirishda ham muhim ahamiyat kasb etadi. U orqali xalqlar tarixi, an'analar va madaniy aloqalar boyib boradi. O'zbekiston xalq shoiri Aleksandr Faynberg ijodi adabiyotning shu vazifalarini namoyon etadi. Uning she'rlari insoniylik, vatanparvarlik va muhabbat mavzularini qamrab olgan bo'lib, tarjimalari orqali u o'zbek va rus adabiyotlari o'rtasida madaniy ko'priklar yaratgan. Uning ijodi adabiyotning milliy va xalqaro miqyosdagi ahamiyatini, uning jamiyatdagi tutgan o'rnini tahlil qilish uchun muhim manba bo'lib xizmat qiladi.

Aleksandr Arkadyevich Faynberg 1939-yil 2-noyabrda Toshkentda tug'ilgan. Uning ota-onasi yozuvchi tug'ilishidan ikki yil oldin Novosibirskdan ko'chib kelgan. Otasi, Lvovich Faynberg (189-1971), Gatchina shahrida tug'ilgan bo'lib, texnologiya institutini tamomlagan va spirt zavodida bosh muhandis lavozimida faoliyat yuritgan. Onasi, Anastasiya Aleksandrovna, Moskvada tavallud topgan va spirt zavodida machinist sifatida ishlagan. Sobiq Jukovskiy ko'chasida shoirning bolaligi o'tgan. Aleksandr Faynberg yetti yillik maktabni tugatgach, Toshkent topografiya texnikumida tahsil olgan. O'qishni yakunlagandan so'ng, Tojikistonda harbiy xizmatni o'tagan. Keyinchalik, 1965-yilda Toshkent universitetining filologiya fakulteti jurnalistika yo'nalishi sirtqi bo'limini tamomlagan va talabalar gazetasida ishlagan. 1961-yilda Inna Glebova Koval bilan turmush qurgan. Aleksandr Arkadyevich Faynberg rus tilida ijod qilgan shoir bo'lib, O'zbekiston xalq shoiri unvoniga sazovor bo'lgan. U O'zbekiston adabiyotida, shubhasiz, en yorqin ijodkorlardan biri hisobalanadi. Shoir adabiy merosi nihoyatda rang-barang va ko'p qirrali va u Toshkent, Moskva va Sant-Peterburg shaharlarida chop etilgan she'riy to'plamlarning muallifi bo'lib, shuningdek, badiiy filmlar uchun ssenariylar yozgan. Aleksandr Faynberg 1999-yilda "O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan madaniyat xodimi", 2004-yilda O'zbekiston adabiyotining rivojiga qo'shgan salmoqli hissasi uchun "O'zbekiston xalq shoiri" faxriy unvoni bilan taqdirlangan. 2008-yilda esa Rossiya Federatsiyasi Prezidenti farmoni bilan rus madaniyati va adabiyotiga qo'shgan hissasi uchun Pushkin medali bilan mukofotlangan. U 2009-yil 14-oktabrda Toshkent shahrida vafot etgan.

Aleksandr Faynberg yetmish yil umri davomida samarali ijod qilib, adabiyotga kata hissa qo'shdi. Uning asarlari nafaqat o'z davrida, balki bugungi kunda ham yosh ijodkorlar uchun ilhom manbai bo'lib qolmoqda. Shoirning ijodi badiiy teranligi va falsafiy mazmuni bilan kitobxonlar qalbidan chuqur joy olgan. Aleksandr Faynberg o'zining ijodiy faoliyati davomida Toshkent, Moskva va Sant-peterburg shaharlarida 15 ta she'riy to'plam nashr ettirgan. Uning she'rlari "Smena", "Yoshlik", "Yangi dunyo", "Sharq yulduzi" Isroilda va "Yangi Volga" kabi mahalliy jurnallarda, shuningdek, sobiq ittifoq, Kanada hamda chop etilgan. Faynbergning she'riyati insonning ichki

kechinmalari, tabiat manzaralari va hayot chizgilarni chuqur tasvirlaydi. Uning asarlarida jonlantirish san'ati, tashbeh va boshqa vositalar orqali o'quvchiga estetik zavq bag'ishlaydi. Shuningdek, uning she'rlari jamiyatning turli qatlamlariga murojaat qilib, insoniy qadriyatlar, tabiatga muhabbat va hayotning mazmuni kabi mavzularni yoritadi. Shu o'rinda uning "So'z" va "Besh daqiqa" nomli she'rlariga e'tibor qaratsak:

SO'Z

Poyezd kechikishi oddiy voqea,
Samolyotni kutib ichikadi ko'z.
Haqiqiy baxtsizlik, kata fojia –
Mabodo kechiksa kutilyotgan so'z.

So'ngan gulxan uzra bo'lgandek pushmon,
Kimsasiz kulbaga boqqandek mahzun
Kechikkan so'z g'arib, yig'laydi yomon,
Uni kecha kutgan odamlar uchun.

Kechikkan so'z bois o'rmonlar yetim,
Bepoyon yerlarning peshonasi sho'r.
Qabrlar qoshida so'z ham beso'z, jim,

Ruhlar bezovtayu, qismat ko'zi ko'r. Bu she'ri orqali shoir inson hayotida so'zning muhim o'rnini ta'kidlaydi. U kechikkan so'zning og'irligini, uning o'z vaqtida aytilmaganida qanday fojialarga sabab bo'lishini badiiy vositalar orqali ifodalaydi. She'ring dastlabki to'rtligida poyezd yoki samolyotning kechikishi oddiy voqea ekanligi, ammo ayni paytda so'zning kechikishi inson hayoti uchun katta fojia ekanligi aytiladi. She'rda jonlantirish (personifikatsiya) san'ati ishlatilgan: kechikkan so'z yig'laydi, bechora holga tushadi. Ushbu she'rda insonlar orasidagi muloqot va tushunish muhimligini ta'kidlanadi. Shoir so'zning kechikishi natijasida kelib chiqadigan ijtimoiy va ruhiy iztiroblarni tasvirlaydi. Jumladan, she'ring oxirgi ikki misrasi jamiyatda ayrim haqiqatlarning kechikib aytilishi natijasida yuzaga keladigan fojialarga ishora qiladi.

BESH DAQIQA

Besh daqiqa qoldi parvozga,
Yurak kukunga to'ldi, o'pga – tutunga.
Eng baland manzilni ishg'ol etaman,
Yolg'iz tahlal ketgum seni ochunga.

Bu, axir, juda ham oddiy haqiqat,
Tortqilayvermagin yo'mg'irpo'shingni.
Men uchib borayotgan olis mamlakat
Senga to'g'ri kelmas, yig'vol hushingni.

Illyuminatorga quyosh sochar nur,
Radar to'lqinidan uzadi parvoz.
– Qayoqqa? – Lablaring qimirlash og'ir,
Qo'l siltaysan, chiqmas shovqinda ovoq.

Yerga tegmay uchar yelgan g'ildirak,
Qanotlar ostidan ko'tarar shamol.
Savoling havoda qolar muallaq,
Sevgilim, sevilgan go'shangda xush qol!

Xush qol, ey sadoqat, xush qol, xiyonat,
Xush qol, baxt va shodlik, xush qol, qayg'u-g'am.
Xush qol endi nafrat, xush qol, muhabbat,

Zor emasman endi hatto senga ham. Shoirning ushbu she'ri esa ayriliq, insoniy munosabatlarning murakkabligi va vaqtning cheksiz oqimi haqidagi falsafiy fikrlarni o'z ichiga oladi. U bu yerda hayotning o'tkinchiligi, hissiyotlarning keskinligi, ba'zan inson o'z hayot yo'lini tanlab ketishi va sevgan kishisini ortda qoldirishi kerakligini ko'rsatadi. She'rning dastlabki ikki misrasida yuqori darajadagi metaforalar ishlatilgan: yurakning kulga to'lishi – ichki kuyinishni, o'pkaga tutun yig'ilishi esa hayotning siqilishlarini anglatadi. "Besh daqiqa" she'ri insoniy munosabatlarning hayot yo'lidagi o'zgarishlar sababli buzilishi, ajralish va inson hayotining muqarrar yo'nalishlarini tasvirlaydi. Bu nafaqat individual darajada, balki ijtimoiy kontekstda ham dolzarb masala. Shoir bu yerda insonlarning jamiyatdagi o'rni va hayot tanlovlari oldidagi ojizligini ko'rsatadi. Shuningdek, ushbu she'r xalqaro adabiyotda uchraydigan egzistensialistik motivlar bilan bog'liq. Shoir insonning yolg'izligi, hissiy kechinmalari va hayot yo'lidagi tanlovlarini tasvirlashda dunyo she'riyatining ilg'or an'alaridan foydalangan. Umuman olganda, Aleksandr Faynbergning bu ikki she'ri so'zning qudrati, insoniy munosabatlar, hayot va vaqt oldidagi ojizlik kabi universal mavzularni qamrab oladi. "So'z" she'ri orqali shoir inson hayotidagi og'ir haqiqatlarni fosh etuvchi so'zlarning ahamiyatini, "Besh daqiqa" she'rida esa hayot yo'lining o'zgarishi, insonning tanlovi va taqdirning muqarrarligini aks ettirgan. Bundan shu narsa aniqki, Faynberg ijodi inson qalbining eng nozik jihatlarini ochib berishga, o'quvchining chuqur fikrlashiga, adabiyot orqali hayotni anglashiga undaydi. Uning she'rlari jamiyatdagi ma'naviy qadriyatlarni mustahkamlashga va adabiy jarayonda chuqur iz qoldirishga xizmat qiladi.

Shu bilan birgalikda, Aleksandr Faynberg tarjima san'atining yetuk vakili hisoblanadi. U rus va o'zbek adabiy aloqalarining rivojlanishiga katta hissa qo'shgan. U, asosan, o'zbek adabiyotining mumtoz va zamonaviy namoyandalari ijodini rus tiliga mahorat bilan tarjima qilishi bilan tanilgan. Uning tarjimalari nafaqat badiiy jihatdan yuksak darajada bo'lib, balki o'zbek adabiyotining rusiyzabon auditoriyaga yetib borishiga katta yordam bergan. Aleksandr Faynberg, asosan, quyidagi mualliflarning asarlarini rus tiliga o'g'irgan:

1. Alisher Navoiy – U Navoiy g'azallarini rus tiliga tarjima qilgan va bu orqali buyuk shoir merosini rusiyzabon kitobxonlarga yetkazgan. Uning tarjimalari o'zbek mumtoz she'riyatining ohangdorligi va falsafiy chuqurligini saqlab qolgan.
2. G'afur G'ulom – Faynberg G'afur G'ulomning lirik va hajviy asarlarini rus tiliga tarjima qilgan. Bu tarjimalar rus kitobxonlariga o'zbek xalqining xarakteri va o'ziga xos badiiy dunyoqarashini ochib bergan.
3. Erkin Vohidov – Mashhur o'zbek shoiri Erkin Vohidovning she'rlarini rus tiliga o'g'irib, uning badiiy olamining keng auditoriyaga yetib borishiga yordam bergan.
4. Abdulla Oripov – O'zbekiston xalq shoiri Abdulla Oripovning vatanparvarlik va insoniylik mavzulariga bag'ishlangan she'rlari Faynberg tarjimasida rus tilida jaranglagan.
5. O'zbekiston zamonaviy adabiyoti vakillari – Unga zamonaviy o'zbek yozuvchilari va shoirilarining asarlarini tarjima qilish ishonib topshirilgan bo'lib, u bu ishni yuksak professionallik bilan bajargan. Faynbergning ushbu tarjimalari o'zbek va rus adabiyoti o'rtasidagi madaniy aloqalarni mustahkamlashda yuqori ahamiyat kasb etadi. Jumladan, uning tarjimalari o'zbek adabiyotining xalqaro miqyosda tanilishiga xizmat qildi, ya'ni bular tufayli rusiyzabon kitobxonlar o'zbek adabiyotining yuksak badiiyati, falsafiy teranligi va milliy o'ziga xosligini chuqurroq anglay boshladilar; o'zbek klassik va zamonaviy adabiyotini rus kitobxonlariga yaqinlashtirdi, ya'ni tarjimon mumtoz va zamonaviy o'zbek adabiyotini rus tiliga o'g'irish orqali ikki xalqning adabiy muloqotini kuchaytirdi. Uning tarjimalari rus kitobxonlariga o'zbek yozuvchilarining asarlari bilan bevosita tanishish imkonini berdi; badiiy tarjima madaniyatini yuksaltirdi, ya'ni Faynberg tarjimalari rus tilida ham o'zbek adabiyotining badiiy-estetik jozibasini saqlab qolgan. U faqatgina so'zlarni tarjima qilish bilan kifoyalanmay, balki she'riy

ohang va ruhni ham yetkazishga alohida e'tibor qaratgan; rus-o'zbek madaniy hamkorligiga hissa qo'shdi, ya'ni u nafaqat tarjimon, balki adabiy jamoatchilikning faollari orasida ham o'zbek va rus adabiy aloqalarini rivojlantirishda muhim rol o'ynagan.

Aleksandr Arkadyevich Faynberg o'zbek kinosi va adabiyotiga katta hissa qo'shgan taniqli ssenarist ham edi. Uning ssenariylari asosida bir qator filmlar va multfilmlar suratga olingan. Jumladan, „Mening akam“: „O'zbekfilm“ kinostudiyasida suratga olingan bu film aka-uka munosabatlari va oilaviy qadriyatlar tasvirlangan; „Jazirama oftob tagida“: yana „O'zbekfilm“ tomonidan ishlangan bu asar qiyin sharoitlarda insonlarning mashaqqatli hayotini ko'rsatadi; „Qandahorda toblanganlar“: „O'zbekfilm“ studiyasida suratga olingan bu film Afg'onistondagi voqealarni aks ettiradi; „Jinoyatchi va oqlovchilar“: „Tojikfilm“ kinostudiyasida suratga olingan bu film jinoyat va adolat mavzusini yoritadi. Umuman olganda, Faynbergning ssenariylari asosida to'rtta to'liq metrajli badiiy film va 20 ga yaqin multfilmlar yaratilgan. Shuningdek, 1999-yilda „Paxtakor“ futbol jamoasining aviahalokatda halok bo'lganining yigirma yilligi munosabati bilan uning ssenariysi asosida „Osmondagi stadion“ nomli film suratga olingan. Ushbu filmda 1979-yilda Faynberg tomonidan yozilgan „Paxtakor“ jamoasiga bag'ishlangan qo'shiq yangraydi. Aleksandr Faynbergning ssenariylari asosida suratga olingan filmlar nafaqat badiiy asarlar, balki jamiyat hayotining muhim ijtimoiy va ma'naviy jihatlarini aks ettiruvchi vositalar sifatida katta ahamiyat kasb etgan. Jumladan, ularda oilaviy qadriyatlar, birodarlik, insoniylik va sadoqat kabi ma'naviy tamoyillarni targ'ib qilgan; tomoshabinlarga halollik, adolat, jasorat va insonparvarlik kabi qadriyatlarni singdirgan; urush, jinoyatchilik, korrupsiya, ijtimoiy tengsizlik kabi muhim mavzularni ochib bergan; oddiy insonlarning mashaqqatli hayotini tasvirlab, ularning muammolariga jamiyat e'tiborini qaratgan; Afg'on urushi kabi og'riqli mavzularni yoritish orqali urush dahshatlari va tinchlikning qadrini anglatgan; sport va milliy qahramonlar haqida hikoya qilib, yosh avlodni vatanparvarlik ruhida tarbiyalagan. Umuman olganda, Faynbergning filmlari va ijodi o'z davrida jamiyatning turli sohalarida muhim o'rin tutgan. Ular shunchaki ko'ngilochar asarlar emas, balki inson ruhiyatiga ta'sir qiluvchi, fikrlashga undovchi va ijtimoiy hayotga befarq bo'lmaslikni targ'ib qiluvchi san'at namunalaridir.

Xulosa qilib aytganda, Aleksandr Arkadyevich Faynberg ijodi o'zbek va rus adabiy-madaniy aloqalarining mustahkamlanishida katta ahamiyatga ega. Uning she'rlari insoniy qadriyatlar, vatanparvarlik va muhabbat mavzularini chuqur ochib bergan bo'lsa, tarjimalari o'zbek adabiyotini rusiyazon kitobxonlarga yetkazishda muhim rol o'ynagan. U mumtoz va zamonaviy o'zbek adabiyotining yorqin namunalari rus tiliga tarjima qilish orqali ikki xalq o'rtasidagi madaniy muloqotni boyitgan. U nafaqat shoir, balki ssenarist sifatida ham o'zbek kinosi va multfilmlariga ulkan hissa qo'shgan. Uning adabiy va tarjima faoliyati, badiiy asarlari hamda ssenariylari bugungi kunda ham dolzarbligini yo'qotmagan bo'lib, yosh ijodkorlar va kitobxonlar uchun ilhom manbai bo'lib qolmoqda. Uning ijodiy merosi o'zbek adabiyoti tarixida muhim o'rin tutadi va adabiyot hamda tarjimachilik san'atining rivojlanishida katta ahamiyat kasb etadi. Faynbergning asarlari inson qalbining nozik jihatlarini ochib berishga, adabiyot orqali jamiyatga ta'sir ko'rsatishga qaratilgan bo'lib, u o'z ijodi bilan madaniy merosning ajralmas qismi sifatida abadiy saqlanib qoladi. Shoir ijodining zamonaviy ahamiyati shundaki, u faqat o'z davri uchun emas, balki kelajak avlodlar uchun ham bebaho manba bo'lib qoladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Rashidova, A. O. (2024). Aleksandr Faynberg ijodiy merosi. Yevroosiyo ijtimoiy fanlar, falsafa va madaniyat jurnali, 4(2). <https://in-academy.uz/index.php/ejsspc/article/view/29656>
2. "Aleksandr Faynberg (1939-2009)". (2013). Ziyouz. https://n.ziyouz.com/index.php?Itemid=130&catid=74&id=2519%3AAleksandr-faynberg-1939-2009&option=com_content&view=article
3. "Aleksandr Faynberg hayoti va ijodi". (n.d.). O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti. <https://www.uzswlu.uz/aleksandr-faynberg-hayoti-va-ijodi>

4. "Aleksandr Faynberg". (n.d.). Vikipediya. https://uz.wikipedia.org/wiki/Aleksandr_Faynberg
5. "Faynberg Aleksandr Arkadevich hayoti va ijodi". (n.d.). Ilmlar mega portali. <https://ilmlar.uz/faynberg-aleksandr-arkadevich-hayoti-va-ijodi/>
6. "Aleksandr Faynberg qalblarda mangu yashaydi". (2023). Oriens. <https://oriens.uz/uz/journal/article/aleksandr-faynberg-qalblarda-mangu-yashaydi/>
7. "Aleksandr Faynberg: The Life, Legacy, and Literary Contributions of a Poet". (2025). International Journal of Uzbek Studies, 5(1). <https://ijournal.uz/index.php/judr/article/view/1792>
8. "Aleksandr Faynberg ijodiy merosi". (2023). CyberLeninka. <https://cyberleninka.ru/article/n/aleksandr-faynberg-ijodiy-merosi>
9. "Aleksandr Faynbergning she'rlarida hayot falsafasi". (2023). International Conference on Developments in Education, Nursing, and Public Health. <https://interonconf.org/index.php/den/article/view/12699>
10. "Faynberg gulbog'i". (2023). Tahlil va tadqiqotlar jurnali, 2(1). <https://talqinvatadqiqotlar.uz/index.php/tvt/article/view/119>